

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TRANSPORTI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI

*Buxoro Davlat Pedagogika instituti*

*Aniq va tabiiy fanlar fakulteti*

*Geografiya va Iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi*

*Valijonova Zarnigor*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining transport tizimi va uning tashqi iqtisodiy aloqalardagi o'rni hamda ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada O'zbekiston transport infratuzilmasining hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mamlakatning asosiy transport yo'nalishlari, tranzit salohiyati va uni oshirish imkoniyatlari o'rganiladi.

Maqolada O'zbekistonning tashqi savdo aloqalari geografiyasi, eksport va import tarkibi hamda transport xarajatlarining savdo samaradorligiga ta'siri tahlil etiladi. Transport logistikasini rivojlantirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va xalqaro transport koridorlarida ishtirok etishning tashqi iqtisodiy faoliyatga ta'siri baholanadi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, transport, tashqi iqtisodiy aloqalar, logistika, infratuzilma, eksport, import, tranzit, transport koridorlari, modernizatsiya.

### **Kirish**

İshlab chiqarishni uzluksiz davom etishida infrastrukturaning ahamiyati katta. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti hududiy tizimlarini shakllanishida ishlab chiqarish infrastrukturasi bilan ta'minlanganligini o'rnaish alohida ahamiyatga egadir. İshlab chiqarish kuchlarini va joylashtirishda transportning ahamiyati beqiyos. Transport har qanday mintaqada ishlab chiqarish infrastrukturasini muhim zvenosi hisoblaknadi. Har qanday masshtabdagi hududni transportsiz samarali va oqilona rivojlantirish mumkin emas. Sanoat va qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish va iste'molchiga yetkazib berishda transport faol ishtrok etadi. İqtisodiy tuman va zonalarda ixtisoslashuv transport orqali amalga oshadi. Transportning rivojlanish darjasasi ishlab chiqarish kuchlari va texnika taraqqiyotining umumiy rivojlanish darajasiga bog'liq. O'zbekiston qudratli (temir yo'l, avto, avia, quvur va daryo) transport tizimlariga ega. Har yili yuk va yo'lovchi tashuvchi transportlarda juda ko'p miqdorda xizmat amalga oishiradi

**Asosiy qism:** O'zbekiston Respublikasida 1999 yilda barcha turdag'i transportda 8145 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 1998 yilga nisbatan 1,7% ga yuqoridir. Avtomobil transporti yuk tashish bo'yicha yetakchi bo'lib, uning zimmasiga – 728 mln. tonna ki 89,7% umumiy yuk tashish hajmiga to'g'ri keladi. Temir yo'l

transportida yuk tashish 41,8 mln. tonna, havo transportida 15,8 ming tonnani tashkil qilsa, suv transportida bu ko'rsatkich 81,0 mln.tonnaga teng. Temir yo'l transporti. O'zbekiston hududida temir yo'l qurilishi 1888 yilda boshlangan edi. Krasnovodsk - Chordjo'y temir yo'li davom ettirilib, Farob bekatidan Samarqandgacha olib borildi. 1890 yilgacha esa Toshkentdan Andijongacha yetkazildi 1905 yilda Orenburg va Toshkent oralig'ida temir yo'l ishga tushirildi. 1931 yilda Turkisib magistralining ishga tushirilishi O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1952 – 1955 yillarda Chorjo'y - Qo'ng'irot temir yo'l qurilishi bilan Quyi Amudar, sobiq İttifoq va O'zbekistonning boshqa rayonlari bilan temir yo'l orqali bog'landi. 1962 – yilda Navoiy – Uchquduq temir yo'l qurib bitkazilib, kon bilan sanoat markazi bog'landi. O'zbekistondagi temir yo'llarning uzunligi 3,4 ming kilometga etdi. 1990 yilgacha Nukus – Chimboy temir yo'l qurib bitkazilib Tuyamo'yin - To'rko'l yo'l qurildi. Ayni paytda qurilish payoniga etgan Nukus – Uchquduq temir yo'l Respublika ahamiyatiga ega bo'lgan transport kommunikatsiyasini rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Transport ishlab chiqarish tizimida muhim o'rinni tutishi bilan birga u har qanday hudud xo'jaligi majmuasining zaruriy bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. Uning rivoji tufayli hududlarni iqtisodiy jihatdan ixtisoslashtirish mumkin. Transport infrastrukturasi va yo'l tarmoqlarining samarali rivojlanishi kadrlarning qishloqlarda mustahkam o'rashib qolishiga, mehnat resurslaridan unumli foydalanish imkonini yaratadi.O'zbekistonda mavjud bo'lgan transport turlari orasida etakchi va muhim o'rinni temir yo'llar egallaydi. Mamlakatda tashiladigan yuklarning 66 foiziga yaqini transportning ana shu tarmog'i zimmasiga tushadi va bu transport mamlakat transport tizimining negizini tashkil etadi. Ort va import qilinadigan yuklarning qariyb 80 foizi ham temir yo'l transporti orqali amalga oshiriladi. Ushbu yo'l yordamida 1999 yil tashilgan yo'lovchilar soni 13,3 million kishini tashkil etgna. İqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan va bozor munosabatlariiga o'tilayotgan hozirgi murakkab sharoitda ishlab chiqarish korxonalari, tashkilot va mamlakat hududlarining samara bilan ishlashi ko'p jihatdan temir yo'llarining qay darajada faoliyat ko'rsatishga bevosita bog'liq. Yuklarning temir yo'llar yordamida va iloji boricha arzon tashilishi iqtisodiyot taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zbekiston iqtisodiyotning rivojlanishida va iqtisodiy aloqalarning o'sishida havo transportining ro'li oshib bormoqda. Respublikamiz endilikda Hamdo'stlikning 1000 dan ortiq shahar va aholi manzilgohlari, shu jumladan, uning barcha poytaxtlari bilan havo transporti orqali bog'langan. Toshkent aeroporti Sharqning xalqaro havo darvozalaridan biridir. Nukus, Termiz, Jizzax, Qarshi, Andijon va Namangan shaharlarida zamonaviy aeroportlar qurildi. Samarqand, Buxoro va Urganch shaharlaridagi aeroportlar xalqaro talabga javob beradigan ravishda qayta ta'mirlandi.

**Xulosa.** O'zbekiston Respublikasining transport tizimi mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Geografik joylashuvi va tranzit salohiyati O'zbekistonga mintaqaviy savdo aloqalarida faol ishtirok etish imkonini beradi. Biroq, transport infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, logistika xizmatlarining sifati pastligi va bojxona tartib-taomillarining murakkabligi tashqi savdo samaradorligini cheklaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdurahmanov, Y. (2020). O'zbekiston transport tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (3), 12-25.
2. Karimov, I. (2018). O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida transport logistikasining roli. Biznes-ekspert, (4), 34-45
3. Rahimov, O. (2021). O'zbekistonning tranzit salohiyatini oshirish istiqbollari. Markaziy Osiyo iqtisodiyoti, (2), 56-67.
4. G'ulomov, N. (2015). Logistika menejmenti. Toshkent: TDIU nashriyoti.
5. Shamsiyev, T.S., & Xodiyev, B.A. (2018). Logistika. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
6. Zokirov, Sh.Z. (2019). Xalqaro logistika. Toshkent: Fan va texnologiya.